

Xalq bankida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyati to‘g‘risida YILLIK HISOBOT

I. Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi.

Bankning 2023-yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga asosan 2023-yil mobaynida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

2023-yilda Bosh bank hamda barcha hududiy tarkibiy bo‘linmalarda o‘quv seminarlar tashkil etilib barcha tarkibiy bo‘linmalar xodimlari bankning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablari bo‘yicha o‘qitildi. Xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini aniqlash maqsadida **9 ming** nafardan oshiq xodimlar orasida test sinovlari o‘tkazildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida Ichki nazorat va komplayens departamentining Bosh ofis xodimlaridan **20 nafar** xodim (Bosh prokuratura akademiyasida - 8 ta, CERT akademiyasida - 12 ta), hududiy va tuman (shahar) filial menejerlaridan **160 nafar** xodim (Bosh prokuratura akademiyasida - 146 ta, CERT akademiyasida - 14 ta) malakasi oshirildi hamda maxsus sertifikatlarga ega bo‘ldi.

Mijozlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ma’sul xodimlarining **286** nafar Bosh prokuratura akademiyasida, **40** nafar CERT akademiyasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkil etilgan kurslarda o‘qilib, malakasi oshirildi hamda sertifikatlarga ega bo‘lindi.

Ichki nazorat xizmati menejerlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bank xodimlariga o‘tkazilgan o‘quv seminarlarida **27 ming** xodim ishtiroki ta’minlandi.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha tajriba almashish, xodimlarning bilimlarini oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar:

“Korrupsiyaga qarshi kurashish – jamiyat taraqqiyotining asosi” mavzusida, “9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan Aksilkorrupsiya oyligi doirasida o‘tkazilgan ochiq eshiklar kuni” o‘tkazildi.

II. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bankda qabul qilingan ichki me’yoriy hujjatlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankida “Ichki nazorat va komplayens departamenti to‘g‘risida”gi Nizomi;

2. “Aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash” Uslubiyoti;

3. “Aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan fuqarolarni rag‘balantirish to‘g‘risidagi NIZOM” tasdiqlandi.

Mazkur hujjatlar bankning “SENDME” dasturiga joylashtirilgan hamda barcha xodimlar ulardan ish faoliyatida foydalanish imkoniyatiga ega.

III. Xavf-xatarlarni baholash.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlari “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti” (*ro‘yxat raqami: 3383, 31.08.2022 y.*) hamda bank faoliyatida korrupsiyaviy xavf xatarlarni aniqlash va baholash tartibiga asosan amalga oshirildi. Baholash natijasiga ko‘ra bankda 16 tasi maqbul (past), 2 tasi o‘rtacha va 2 ta - yuqori xavf-xatarlar deb belgilandi va tasdiqlandi.

Bankda korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan lavozim va eng ko‘p moyil bo‘lgan funksiya va lavozimlar uchun o‘quv-trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha reja-dastur tasdiqlandi va dastur asosida ichki hamda tashqi ekspertlar ishtirokida o‘quv-treninglar tashkil qilindi.

IV. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar.

Bank Boshqaruvining tegishli qarori bilan:

“Aksiyadorlik tijorat Xalq bankida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlangan. Mazkur hujjalalar bilan bankda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va bartaraf etish tartiblari, shuningdek manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilishning qoidalari belgilangan.

2023-yilda bank tizimida 7768 nafar xodimlar, shu jumladan rahbar xodimlar manfaatlar to‘qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligi to‘g‘risida deklaratsiyalarni taqdim etishgan.

Deklaratsiyalar tahlili natijalariga ko‘ra bank tizimida real manfaatlar to‘qnashuvi 18 ta holatda, potensial manfaatlar to‘qnashuvi 3 ta holat aniqlandi. Manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish jarayonida 8 nafar xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi, 13 nafar xodim boshqa lavozimlarga o‘tkazildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini sharnomalariga kiritish holati.

Xalq bankida bank hisobravarag‘i shartnomasi va mijoz hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatishga doir boshqa shartnomalarni hamda Xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomalarga kiritilishi ta’minlandi.

V. Kontragentlar va ishga qabul qilishda nomzodlarni tekshirish holati.

2023-yilda xaridlarni amalga oshirish jarayonida 21 ta kontragent o‘rganilgan. O‘rganish natijasiga ko‘ra ularga ijobiylar xulosalar berilgan.

Hisobot davrida bank tizimiga ishga kirish uchun nomzodlar ustidan o‘tkazilgan tekshiruvlar soni 245 tani tashkil etadi. Shundan:

Toshkent shaharda – 23ta;

Namangan viloyatida – 1ta;

Farg‘ona viloyati – 1ta;

Andijon viloyati – 11ta;
Surxona viloyati – 3ta;
Toshkent viloyati – 2ta;
Samarqand viloyati – 13ta;
Qashqadaryo viloyati – 11ta;
Qoraqolpog‘iston Respublikasi – 18ta;
Xorazm viloyati – 3ta;
Buxoro viloyati – 11ta;
Navoiy viloyati – 2ta;
Sirdaryo viloyati – 25ta;
Jizzax – 29ta;
Markaziy apparat - 92ta.

VI. Ta’lim va kommunikatsiya.

2023-yil 19-iyunda Xalq banki Boshqaruvi a’zolari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki mutasaddi xodimlari ishtirokida “Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish” mavzusida seminarlar tashkil etildi hamda bankning barcha shahar (tuman) filliallariga jonli translyatsiya qilindi va 2600 yaqin xodimlar ishtiroki ta’minlandi.

2023-yilda 440 nafar bankning mijozlar bilan bevosita ishlovchi xodimlari hamda Ichki nazorat va komplayens departamentining markaziy apparat va hududiy tuzilmadagi xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan tashkil qilingan online kursda qatnashib, sertifikatlar olinishiga erishildi.

Bundan tashqari, 9-dekabr “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan 2023-yilning 7-dekabr sanasida “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri tashkil qilindi Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha ommaviy axborot vositalari va keng ommaga hisobot berildi.

VII. Monitoring va nazorat.

Bank tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida ishlab chiqilgan ichki me’yyoriy hujjalarni monitoring qilish jarayonida o‘z aktualligni yo‘qotgan “Xavf -xatarlarni baholash” Tartibi yangi tahrirda ishlab chiqildi.

Shuningdek, “Aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan fuqarolarni rag‘batlantirish to‘g‘risidagi NIZOM” tasdiqlandi.

Hisobot davrida Ichki nazorat va komplayens departamenti tomonidan amalga oshirilgan monitoring natijasida jami 19 ta holatda bank xodimlari tomonidan bank mablag‘lari o‘zlashtirilganligi aniqlandi. Aniqlangan holatlar bo‘yicha materiallarga huquqiy baho berilishi maqsadida huquqni muxofaza qiluvchi organlarga taqdim etildi.

IX. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar to‘g‘risidagi xabarlar yuzasidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari bo‘yicha ma’lumot.

2023-yil davomida bankning korrupsiyaga oid xabarlar berishga mo‘ljallangan “Tezkor xabar” ilovasi orqali jami 98 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, ulardan 7 tasi korrupsiyaga dahldor murojaatlardir. Shundan, 2 ta murojaatlar o‘rganilib to‘plangan ma’lumotlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim qilindi, 5 ta murojaat yuzasidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijasida korrupsiyaviy jinoyat aniqlanmadi.

Boshqa aloqa kanallari orqali jami 554 ta murojaatlar kelib tushgan bo‘lib, ulardan 7 tasi korrupsiyaga doir bo‘lib, ushbu murojaatlar bo‘yicha xizmat tekshiruvi tayinlandi va xizmat tekshiruvi davomida aniqlangan holatlar bo‘yicha ma’lumotlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etildi.

X. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta’sir choralar.

Kelib tushgan murojaatlar bo‘yicha tegishli tartibda xizmat tekshiruvlari o‘tkazilgan va ularning natijasida:

2 ta holatda – o‘z tasdig‘ini topgan;

12 ta holatda o‘z tasdig‘ini topmagan;

Aniqlangan qoidabuzarliklar holatlari bo‘yicha:

3 ta xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi;

1 ta xodimga intizomiy jazo chorasi ko‘rildi.

XI. Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar.

2024-yil mobaynida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi va talablari bo‘yicha o‘quv-treninglar hamda test sinovlarini davom ettirish;

Bank hududiy tarkibiy bo‘linmalarini Xalqaro ISO 37001:2016 standart sertifikatini olish.

Korrupsiyaviy holatlarni kelib chiqishini kamaytirish maqsadida targ‘ibot-tashviqot ko‘lagini oshirish maqsadga muvofiq.

2024-yil 10-yanvar